

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
O'ZBEK FILOLOGIYA FAKULTETI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

MAVZU: Ishning umumiy tavsifi

Bajaruvchi: D. Farrux

ISHNING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, xalqimiz uchun milliy, madaniy, adabiy va diniy qadriyatlarni tiklash, asriy an'analarga qayta hayot bag'ishlash imkoniyati yaratildi. Prezident I.A.Karimovning «Ma'naviyat o'z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi. Tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo'lmaganidek, o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi»¹ - degan so'zlari fikrimizning dalilidir.

Xalq xotirasi, madaniyati va ma'naviyatining tarkibiy qismi bo'lgan o'zbek onomastikasi sohasining ilmiy yo'nalish sifatida rivojlana boshlaganiga unchalik ko'p vaqt bo'lmadi. O'tgan davr ichida joy nomlarini, o'zbek ismlarini, o'zbek etnonimiyasini o'rganish bo'yicha anchagina ishlar amalga oshirildi. Ushbu sohada qilingan ilmiy ishlarning salmog'i kattadir. Shu paytgacha respublikamizda ilmiy muassasalar, oliy o'quv yurtlarida toponimika, umuman, onomastika bo'yicha ko'pgina ilmiy tadqiqot ishlari yuzaga keldi. Ularning mualliflari yetakchi o'zbek nomshunoslari H.Hasanov, T.Nafasov, Z.Do'simov, S.Qorayevlardir. Ushbu olimlar va bir qator nomshunoslarning sa'yi harakati bilan respublikaning bir qator viloyatlari toponimlarining materiallari to'plandi va chuqur tahlil qilindi.

Ma'lumki, toponimiya muayyan hududlarda tarqalgan va xalq tilida jonli yashovchi lisoniy material bo'lib, mohiyatan xalq lahja va shevalaring lug'aviy boyligidir.

Qayd qilingan mulohazalardan ma'lum bo'ldiki, Navoiy viloyati toponimlari hozirga qadar qoniqarli tadqiq qilingan emas. Ushbu fikr

¹ Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. - T.: O'zbekiston, 1992. – B. 71.

viloyatning Karmana tumani makro- va mikro- toponimiyasi uchun ham to'liq taalluqli.

O'zbekiston hududi toponimiyasining umumiy xususiyatlarini bilish, uning lisoniy boyliklari ko'lamini haqida umulashma fikrga kelish hamda ushbu asosda respublikaning toponimik xaritasini tuzish uchun respublikaning barcha hududi, jumladan, tumanlari toponimiyasi materiallarini sinchiklab to'plash va tadqiq qilish lozim bo'ladi. Mana shu ma'noda o'z qadimiy tarixi va toponimik materialiga ega bo'lgan Karmana tuman toponimiyasining lisoniy xususiyatlarini tadqiq qilish, shubhasiz, ma'lum nazariy hamda amaliy qimmatga egadir.

Yuqorida qayd qilinganlar ushbu bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi: Karmana tumanidagi toponimlarni lisoniy nuqtai nazardan tadqiq etishdir.

Tadqiqotning vazifalari:

- Karmana toponimlarini to'plash;
- toponimlarni semantik xususiyatiga ko'ra tasnif qilish;
- toponimlarni atalish motivlariga ko'ra guruhlash;
- toponimlarni yasash usullariga ko'ra tahlil qilish;
- toponimlarning qo'llanish jarayonida ular tarkibida yuz bergan turli fonetik-grammatik o'zgarishlarni aniqlash;
- toponimlarning tarixiy-etimologik jihatdan qaysi lug'aviy qatlamlarga mansubligini aniqlash.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti va materiali. Karmana tumanida mavjud bo'lgan joy nomlari (toponimlar) ushbu tadqiqotning asosiy ob'ekti bo'lib xizmat qildi.

Mazkur mavzuning faktik materiallarini Karmana tumanida qadimdan va hozirga qadar qo'llanishda bo'lgan joy nomlari va ular tarkibida ishtirok etuvchi indikatorlar tashkil qiladi.

Lisoniy material asosan, sheva vakillari tilidan bevosita so'rash orqali to'plangan. O'rni bilan ishda arxiv materiallari, tarixiy asarlarda va qadimgi kartalarda uchraydigan toponimlarga ham murojaat qilindi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Karmana tumanida tarqalgan toponimlarni lisoniy tahlil qilishda Respublikamizda va xorijdagi mashhur turkolog, tarixchi olimlar Ya.G'ulomov, H.Hasanov, F.Abdullayev, A.Abdurahmonov, Z.Do'simov, S.Otaniyozov, S.Qorayev, T.Enazarov, O'.Oripov, A. Aslonov kabilarning tadqiqotlari va ularda ilgari surilgan fikrlarga suyanilgan. Ular ishning metodologiyasini tashkil etadi. Karmana tumani toponimlarining lisoniy xususiyatlarini o'rganishda hozirgi davr onomastika sohasida erishilgan ilmiy tahlil usullariga tayanildi. Shuningdek, ishda tavsifiy o'rni bilan qiyosiy-tarixiy, etimologik tahlil usullariga ham murojaat qilindi.

Bitiruv malakaviy ishi tuzilishi: ishning umumiy tavsifi, ikki bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB

Karmana mikrotoponimiyasining lug'aviy asoslari

Mamlakatimizda ijtimoiy taraqqiyotni yuksak darajaga ko'tarishning asosiy omillaridan biri fan va madaniyatni rivojlantirish deb belgilangan. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, «Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan, g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan, nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi»¹.

Toponimlar jug'rofiy ob'ektlarni, konkret hududlarni, tabiiy va sun'iy ob'ektlarni yakka, alohida olingan holda nomlashga, bu orqali bir tipli, o'xshash ob'ektlarni o'zaro farqlash, ajratish va topishga xizmat qiladigan nomlar bo'lib, tildagi eng ko'hna hodisalardan biridir. Toponimlarning qimmatli materiallari o'tmish davrlarda yaratilgan yozma yodgorliklar tilida, ayniqsa lahja va shevalar tarkibida saqlanib qolgan va bizgacha yetib kelgan.

Toponimlar, umuman, onomastik birliklar bilan, deyarli, fanning barcha sohalari vaqillari qiziqishgan. Ular tarixchilar, geograflar, etnograflar, yozuvchilar, tilshunoslar, faylasuflar va boshqa fan namoyandalari bo'lishgan.

Umuman, turkiy toponimiyaning dastlabki to'plovchilari va tadqiqotchilari tarixchilar, sharqshunos va etnograflar bo'lganini qayd etish lozim bo'ladi. Shu sababli, sharqshunoslarning dastlabki avlodiga mansub o'zbek tadqiqotchilardan Ya. G'ulomov, B. A. Ahmedov, K.Shoniyozov, A. Muhammadjonov va boshqalarning tadqiqotlarida toponim va etnonimlar tahliliga ham alohida e'tibor qilinganini ko'ramiz. Ularning asarlarida joy nomlari, etnonimlar, ba'zi ismlarning, laqab va taxalluslarning ma'no va etimologiyasiga oid qiziqarli talqinlar uchraydi. Qayd qilingan jarayon ilmiy

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston, 1997. - 137 b.

toponimika sohasining paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojida ilk bosqich edi.

O'zbek toponimiyasi ham ushbu bosqichni o'z boshidan kechirdi. Endilikda toponimiya bilan shug'ullanish ishi har bir muayyan fanning maqsadi va manfaatlari nuqtai nazaridan olib borilmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, toponimlarni tadqiq qilish usullari ham takomillashib bormoqda. Avvallari, masalan, tarixchi va sharqshunoslar joy nomlarini, asosan, tarixiy ma'lumotlar asosida tahlil qilishgan bo'lishsa, endilikda ular o'z kuzatishlarida tilshunoslik fani usullaridan barakali foydalanishga intilishmoqda. Buning yorqin namunasi sifatida taniqli arxeolog, akademik A.Muhamadjonovning keyingi yillarda e'lon qilayotgan maqolalarini ko'rsatish mumkin.

Hozirgi nomshunos-tilshunoslar o'z tadqiqotlarida tarix, geografiya, etnografiya fanlarining toponimlarni o'rganish borasidagi yutuqlarini nazardan soqit qilayotganlari yo'q.

Xullas, umuman onomastika, jumladan, toponimiyani tadqiq qilish o'tgan asrning 60–70 yillariga qadar turli fan vakillarining qo'lida bo'lib keldi. Mana shu davrdan keyin toponimiyani o'rganish asta-sekin tilshunoslar qo'lga o'tdi va toponimiya joy nomlarini lingvistik usullarda (boshqa fanlarning foydali usullaridan foydalangan holda) o'rganuvchi ilmiy sohaga aylandi. Mana shu jarayon o'zbek toponimikasi sohasining shakllanish xususiyatlariga ham to'la tegishlidir.

O'zbek toponimikasida yuzaga kelgan ilk tadqiqot geografik nomlarni (ko'proq o'zga tillarga mansub toponimlarni) o'zbek tilida yozish (transkripsiya qilish) muammolariga bag'ishlandi.

O'zbekiston hududi toponimiyasining umumiy xususiyatlarini bilish, uning lisoniy boyliklari ko'lami haqida umumiy fikrga kelish uchun respublikaning barcha hududi, jumladan, tumanlari toponimiyasi materiallarini sinchiklab to'plash va tadqiq qilish lozim bo'ladi. Mana shu ma'noda o'z qadimiy tarixi va boy toponimik materiallarga ega bo'lgan Karmana tumani toponimiyasining

lisoniy xususiyatlarini tahlil qilish, shubhasiz, ma'lum nazariy va amaliy qimmatga egadir.

Ma'lumki, mustaqillikdan so'ng muqaddas qadamjolar, masjid, madrasalar, madaniy yodgorliklar qayta ta'mirlanib, qadimiy shaharlarning asl tarixi, uning barpo etilishi borasida tadqiqotlar olib borish imkoniyatiga ega bo'ldik.

Karmana O'rta Osiyodagi eng qadimiy aholi yashaydigan joy hisoblanadi. Sarmish tog'laridagi afsonaviy tizmalar, Uchtut qishlog'i yaqinidagi tosh davri qoldiqlari, Qarnab tog'lari toshlariga uyilgan turli rasm va shu yerlardagi g'orlarda uchraydigan belgilar Karmana tarixi eramizdan avvalgi davrlarga borib taqalishini ko'rsatadi.

Karmana (asli sug'diycha Xarmana – Katta saroy) – aholi yashaydigan qadimiy maskanlardan biri. Navoiy viloyatida joylashgan. Viloyat hududida o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar va kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha, Zarafshon vodiysining bir qismi daryo, bir qismi adirlik va dashtlik yerlari kesib o'tgan o'rta qismida joylashgan keng bu hududda aholi o'rta tosh davrining muste bosqichidan boshlab yashab keladi.¹

Buxoro tarixchisi Muhammad Narshaxiyning ta'rificha, Karmina Buxoro qishloqlari jumlasidan bo'lib, uning suvi Buxoro suvidan keladi; xiroji Buxoro xirojiga qo'shiladi. Uning o'ziga tegishli alohida bir qishloq ham bor; unda masjidi jome barpo etilgan. Karminada adib va shoirlar ko'p bo'lganlar. Masalda aytilishicha, Karminani "Bodyayn xurdak" ("Ko'zacha") deb ataganlar. Buxorodan to Karminagacha o'n to'rt farsangdir.²

Karmana toponimi bilan bog'liq bir necha afsonalar bor. Ularda keltirilishicha, go'yo Kar Amina iborasi keyinchalik Karmanaga aylangan emish. Yoki Iskandar Zulqarnayn butun dunyoni zabt etib, Nurota tog'lari orqali Zarafshon daryosi tomon kelayotganda baland qir ustidan daryo sohilida joylashgan go'zal, xushmanzara "kent"ni ko'rib, unga mahliyo bo'lib:

¹ O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 4- son, T., Davlat ilmiy nashriyoti. 2002 yil. – 474-bet.

² Narshaxiy. Buxoro tarixi. – T., Kamalak, 1991. – 95-bet.

“Karmeno” deb yuborgan ekan. (“Karmen” yunoncha soʻz boʻlib, goʻzallik maʼnosini beradi.) Boshqa manbalarda Karmana nomi arablardan olingan, yaʼni arablar Zarafshon sohilida joylashgan shaharning tuprogʻi, suvi, tabiati Armanistonga oʻxshash boʻlgani uchun “Ka Arminita” (“Armanistonga oʻxshash”) deb atashgan deyiladi. Professor H. Hasanov esa oʻz asarlarida “Karmana” soʻzi maʼnosini “eski manzilgoh, eski qishloq” deb taʼriflagan. Xullas, hozirgi davrdagi tarixiy va ilmiy manbalarda “Karmana” toponimining asl maʼnosi va etimologiyasi uchramadi, lekin bu boradagi izlanishlar davom etyapti.

S.Inoyatovning “Sohibqiron va Temuriylar nazari tushgan diyor” risolasida Karmanani Yazir yoki Yasir viloyati deb nomlagani “yasirlar” saljuqiylarning bir qabilasi boʻlganligini taʼkidlaydi.

Shubhasiz, “Karmana” toponimi toʻgʻrisida yuqorida keltirilgan maʼlumotlar ushbu atamaning turli shakllarda yozilishi hamda rivoyatlarga asoslangan uning etimologiyasi buyicha baʼzi bir oʻxshatmalarga oid boʻlib, “Karmana” toponimining haqiqiy etimologiyasi uning morfologik tahlili asosida aniqlanadi.

A.Muhammadjonovning yozishicha, “Karmana” atamasi uch komponentli toponimlar qatoriga kiradi. U uch soʻz bogʻlovchi suffiks morfema “kar”, substrak oʻzak “min” yoki “man” hamda nom yasovchi “a” birikmasidan shakllangan. Atamaning morfemasi “kar” aholi talaffuzida “xar” baʼzan esa “kal” shakllarida yuritilib, undagi dastlabki “x” harfi “k” harfi bilan, oxirgi “r” harfi esa “l” bilan almashinib ishlatilgan. Natijada Buxoro vohasi tarixiy geografiyasida “Xarkon”, “Xarjon” va “Qalqon” kabi qadimiy atamalar yuzaga kelgan. Bu atamalar “Karmana” toponimiga bevosita aloqador boʻlib, uning turli leksemalari ekaniga shubha yoʻq. “Xar” morfemasi sifatdash shaklida birikib, hosil etgan ayrim atamalar: *xarsang*, *xartum*, *xartang* kabi fors-tojik hamda oʻzbek tili xazinasida uchraydigan hamda tugal fikr anglatadigan ayrim atamalarning tahlili vositasida maʼlum darajada oydinlashtirish mumkin. Xalqimiz yirik toshlarni *xarsang*, togʻ tizmalari orasidagi chiziqlarni *tang*,

kengroq qisqichbaqani *xarchang*, filning ulkan tumshug'i *xartum* deb atalgan.¹

Demak, bunday atamalarga birikib kelgan "xar" morfemasi *katta*, *ulkan* kabi siqatlarni ifodalagan. Agar "Karmana" yoki "Karmina" atamasiga birikkan "kar" morfemasi "xar" shaklida belgilansa, u vaqtda toponim "Xarmina" yoki "Xarmana" talaffuzini oladi. "Min", "man" substratining sifatdoshi tarzida uning kattaligini ifodalab, mazkur toponim etimologiyasiga ma'lum darajada aniqlik kiradi.

Xullas, "Karmana" atamasi bunday shaklda "Katta min" yoki "Katta man" iborasini vujudga keltiradi. "Karmana" toponimining asl shakli "Xarman" yoki "Xarmana" bo'lib, u "katta saroy", "oliy qarorgoh" kabi tushunchalarni bildirgan, degan xulosaga kelish mumkin.

Karmana tumanidagi oykonim (shahar, qishloq, guzar, mahalla, ovul kabi aholi yashaydigan topoob'ektlarning nomi) larining aksariyati juda qadimiy. Ularning nomlanish sabablari ham juda ko'p holda unutilgan. Chunonchi, Ulug'lar, Gadoylar, Xo'ja Xisrav, Yuqori Arg'in, Ko'hna Qo'rg'on, Xo'jalar, Garruklar, Kalobod kabi.

Etnik nomlar – etnonimlarga urug', qabila, elat, xalq, millatlarning nomlari kiradi. Turkiy tillarda, jumladan, o'zbek tilida etnonimlardan yasalgan toponimlar keng tarqalgan va bunday nomlar "Etnik belgilar asosida yasalgan toponimlar", "Etnotoponimlar" deb yuritilmoqda.

Karmana tumani hududidagi etnotoponimlarni tahlil qilishdan oldin bitta masalaga, ya'ni etnonimlarning atoqli ot sistemasiga munosabati muammosiga qisqacha to'xtab o'tishga to'g'ri keladi. Chunki biz o'z ishimizda etnonimlarni atoqli otlar guruhida talqin qilmoqdamiz, ammo bu masalada nomshunoslikda turlicha qarashlar mavjud. Bir guruh tadqiqotchilar etnonimlarni atoqli ot deb hisoblashadi. O'zbekcha matnlarda etnonimlarning goh bosh, goh kichik harflar bilan yozilayotganligi ham bu masalada ikkilanish mavjudligidan darak beradi.

¹ A. Muhammadjonov "Karmina" yoki "Karmana" toponimining etimologiyasi haqida. "O'zbekiston tarixi" jurnali. 1999. 2 – son. 71 – 72 betlar.

Umuman, ushbu muammo alohida tekshirishlarni talab qiladi. Ammo bitta masala aniqki, etnonimlar toponegizlar orasida yetakchi o'rin egallaydi.

O'zbekistonning turli hududlarga mansub etnonimlar tahlili shuni ko'rsatganki, toponimlarning bu tipi yuzaga kelishiga ko'ra ikki belgisi bilan ajralib turadi:

1. Etnonimlar ko'proq aholi istiqomat qiluvchi hududlarda uchraydi.

2. Etnotoponim ko'chmanchi aholi yashagan yoki ularning avlodlari yashayotgan joylarda uchraydi.

Etnotoponimlarni ularning etnonimik negiziga ko'ra (toponegiziga) ikkiga bo'lish mumkin:

- 1) Negizida xalq, elat yoki millat nomi yotgan etnotoponimlar: Arab (q.), Qozoqovul, Turkmanlar (q), Turkmanariq kabi.

- 2) Negizida urug', qabila va ularning mayda shaxobchalari nomi yotgan etnotoponimlar: Qovchin (qq), Qiyot (qq), Bolg'ali (qq.), Bahrinto'p (qq.), Qo'shtamg'ali (qq.), Kerayit arig'i kabi.

Toponimning etnotoponim ekanini, ya'ni nom negizida etnik leksika yotganini aniqlash ba'zan qiyinchilik tug'diradi. Mana shunday hollarda toponimning tarkibidagi ba'zi ko'rsatkichlarga e'tibor berish lozim bo'ladi. Odatda tarkibida quyidagi belgilar uchrasa, toponim etnonimdan yasalgan bo'ladi.

- 1) Nom tarkibida to'p (to'b), to'pi (to'bi) so'zlari uchraydi. Bu so'zlar aslida etnonimik indikatorlardir. X.Doniyorov shodmonto'pi, shodito'pi, yashig'to'pi, qozoqto'pi kabi etnonimlarni qayd etgan.

- 2) Oxirida -li, -di, -ti (lahjaviy) qo'shimchalari mavjud ba'zi toponimlar etnotoponimlardir: Jilontamg'ali, Kovushli, Taroqli, Qo'shtamg'ali, Qoziyoqli, Bolg'ali, Tug'ali, Keshtali (Kashtali), Cho'michli, Choriqli, Qaychili, Chiroqli, Ilonli, Sarkali va b.

- 3) Oxirida -chi qo'shimchasi mavjud ba'zi nomlar etnotoponimlardir: Polvonchi (qq.), Tuyachi, Tuyachitepa, Cho'pchi (qq.), Korizchi kabi.

4) Tarkibida -lar qo'shimchasi kelgan nomlar etnotoponimlardir: beklar, boylar, kallalar, xo'jalar, qirqlar, qoralar, qullar kabi. Ko'salar, Gadoylar, Ulug'lar, Garruklar, Arablar (aq.), Kulollar va b.

5) Tarkibida -on, -yon qo'shimchalari mavjud nomlar etnotoponimlar hisoblanadi. Ko'plik tushunchasini ifoda etuvchi ushbu tojikcha affikslar o'zbekcha -lar qo'shimchasiga to'g'ri keladi. Ushbu qo'shimchalar O'zbekiston hududidagi tojikcha toponimlar tarkibida uchraydi. Ammo ushbu model Karmana hududi uchun xarakterli emas.

6) Oxiri -i qo'shimchasi bilan tugovchi ba'zi nomlarni ham etnotoponimlarga kiritish mumkin: Ajinabegi, Urganji kabi. Ushbu model ham Karmana toponimiyasida siyrak uchraydi.

Etnotoponimlarning ma'nosini talqin etish borasida ancha munozarali tomonlar bor. Ba'zi ishlarda etnotoponimning (toponimning) ma'no va etimologiyasi deb, uning negizida yotgan etnonimning ma'no va etimologiyasi talqin qilinadi. Bunga qo'shilish qiyin. Aslida etnotoponimlarning ma'nosi soddadir, ya'ni har qanday etnotoponim o'zi mansub bo'lgan hududda o'tmishda etnonimda ifodalangan etnik guruh yashagani yoki ularning avlodi hozirda yashayotgani haqida darak beradi.

Tumandagi topoob'ektlar nomlarini tahlil qilganda, qishloqlarning atalish sababi sezilib turadi. Bular quyidagilar:

1. Etnik nomlar bilan bog'liq toponimlar. Toponimlarning ushbu guruhi qishdoqda tarixan yashab kelgan etnosning qaysi urug', qabila yoki xalqqa mansubligiga ishora qiladi: Do'rmon (urug' nomi) qishlog'i, Uyrot (qabila nomi) qishlog'i, Burqut (qabila nomi) qishlog'i, Qavola (urug' nomi) qishlog'i, Jaloyir (urug' nomi) qishlog'i, Ayronchi (urug' nomi) qishlog'i, Arg'in (qabila nomi) qishlog'i, Bahrin (qabila nomi) qishlog'i, Qiyot (o'zbek qavmlaridan biri nomi) qishlog'i va boshqalar.
2. Qishloqning paydo bo'lish vaqtiga ishora qiluvchi toponimlar: Yangiobod, Yangi qishloq, Yangi Ariq, Yangirabot, Ko'hna Qo'rg'on va boshqalar.

3. Aholining kasb-kori, mashg'ulotiga ishora qiluvchi nomlar: Qassoblar qishlog'i, Tandirsozlar qishlog'i, Kulollar to'pi, Sog'itaroshlar qishlog'i va boshqalar.

Tuman toponimlari materiallarini ma'naviy- mavzuiy jihatdan boshqa tiplarini ham uchratish mumkin.

Umuman olganda, Karmana tuman toponimiyasining yuzaga kelishi va rivoji ushbu hududda yashovchi aholining uzoq tarixiy o'tmishi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy- ma'naviy hayoti etnik turmushi bilan bog'liq bo'lib, nafaqat tilshunoslik sohasi uchun, balki, tarix, geografiya, etnografiya, madaniyat va ma'naviyat tarixi uchun ham qimmatli materiallar bera oladi.

1.1. Toponim va indikatorlar.

Karmana atrofi toponimiyasini tahlil qilishda toponimik terminlar va indikatorlarga to'xtalib o'tish joiz deb hisoblaymiz.

Indikatorlar aniqlovchi so'z bilan ob'ektning nomi bo'lib keladi: Oqtepa, Qoratepa va hokazo. Bu tipning eng faol qo'llanishi tabiiy holdir. Chunki toponimning vazifasi bir ob'ektni xuddi shunday ob'ektdan farqlashdan iborat ekan. Ob'ektlarni bir-biridan ajratuvchi differensial belgi indikator oldidagi aniqlovchida namoyon bo'ladi. Toponimning ob'ekt haqidagi informatsiyasi ham ko'pincha ana shu so'zda mujassamdir. Kishilar ob'ektni turli xil belgilari asosida farqlaydi. Ta'kidlaganimizdek, bu belgilarni tanlash turli xil faktorlarga bog'liq. Shu boisdan ham indikatorlar turli xil so'zlar bilan qo'llanishi mumkin. Bu so'zlar ob'ektning hajmini /Katta ko'l /, shaklini , sonini, uzoq-yaqinligini, joylashish o'rnini bu yerda bo'lgan bir xarakterlovchi voqeani va ko'plab boshqa belgilarni anglatishi mumkin. Bunday so'zlar ko'pincha ob'ektning belgi, xususiyatini ifodalaydi. Shunisi xarakterliki, bunday so'zlar indikatorlar bilan shu daraja yaqinlashganki, ko'pchilik hollarda ular indikatorlarsiz ham ob'ektlar ifoda eta oladi. Masalan, **chuqur**, **sayoz** kabi so'zlar suv ob'ektlariga nisbatan, **yuqori**, **oyoq** so'zlari suvning /kanal, arna kabi/ boshi va oxirida joylashgan aholi punktlariga, **uzoq**, **yaqin** so'zlari joy nomlariga, **achchiq**,

chuchuk soʻzlari koʻllarga nisbatan qoʻllaniladi. Baʼzan ular yolgʻiz holda ham toponim sifatida qoʻllana oladi. Shu boisdan ham bu tipdagi soʻzlarni *funksional indikatorlar* deb atash toʻgʻriroq boʻlar edi. Har holda bunday funktsiyani tildagi mos soʻzlar ham bajara olmaydi. Umuman, obʼektning belgisi ham cheksiz boʻlmagani kabi ularni ifodalovchi soʻzlar ham chegaralangandir.

Shunday ekan, toponimlarning tarkibida qatnashib, obʼektning belgi-xususiyatini bildiruvchi va oʻrni bilan indikatorlar funksiyasini bajaruvchi soʻzlarni funksional indikatorlar deyish lozim.

Ular *joy, makon, oʻrin* maʼnosini ifodalovchi terminlardir. Bu tipdagi indikatorlar oʻrin maʼnosini ikki usulda ifodalaydi.

a) obʼektning turini koʻrsatish orqali: qoʻrgʻon , **qalʼa, rabot ,ovul, avliyo, koʻcha, qishloq, machit, , bozor** va hokazo.

b) jamlik, koʻplik orqali: **jam, toʻp, bogʻ (bagʻ)** kabi.

Bu indikatorlarning koʻpchiligi Markaziy Osiyo va Qozogʻiston hududida shuningdek, boshqa turkiy xalqlar toponimiyasida mavjud. Ammo ular maʼno ottenkalariga koʻra bir-biridan farqlanuvchi holatlarga ham egadir.

Kattaqoʻrgʻon toponimi ikkita maʼnoli qismdan tashkil topgan: kanta, qoʻrgʻon. Bizningcha, toponim tarkibidagi katta soʻzi hajmni bildirmaydi. Toponimdagi katta soʻzi kanta lugʻaviy asosining fonetik oʻzgarishga uchragan ($n > t$) shakli. Kandasoy (Nam. vil. Chorkesar q. Adir va soy) – bu toponimda t tovushi d tovushiga oʻtgan, maʼnosi qoʻrgʻonli soy demakdir. Kandabuloq (Far. Vil. Quva tumanidagi qish.) – qoʻrgʻonli qishloq, qoʻrgʻonli buloq maʼnolarini anglatadi. Shuningdek, Obikanda toponimi suvli qoʻrgʻon degan maʼnoni ifodalaydi. Xullas, shahar va qishloq maʼnolarida qoʻllanuvchi kent lugʻaviy asosining tarixiy taraqqiyot natijasida turli fonetik oʻzgarishlarga uchrab, kan, kat koʻrinishlarida kelishi ham kanta va kand lugʻaviy asoslarining oʻzaro bogʻliqligini koʻrsatgan. Ushbu maʼnoli qism qoʻrgʻon soʻzi bilan birikib, fonetik oʻzgarishlarga uchragan: kanda $>$ kanta Q qoʻrgʻon $>$ kanta qoʻrgʻon $>$ kattaqoʻrgʻon $>$ Kattaqoʻrgʻon. Demak, katta lugʻaviy asosi bilan shakllangan baʼzi toponimlardagi bu soʻz maʼlum oʻzgarishga uchrab shu holga kelgan.

Nisbatan yaqin davrlarda yaratilgan toponimlarda katta soʻzi koʻp qoʻllanadi. Katta soʻzining toponimlar tarkibida maʼlum bir miqdorda qoʻllanib, katta shakliga kelib qolishi va shu holatida ishlatilishi esa juda kam uchraydi.¹

Qoʻrgʻon komponentli toponimlar mamlakatimizda koʻp uchraydi. Uchqoʻrgʻon, Beshqoʻrgʻon, Qirqqoʻrgʻon, Qoʻrgʻoncha qishlogʻi, Qoʻrgʻonqishloq va boshqalar. Bu soʻz bilan shakllangan joy nomlari Respublikamiz tashqarisida ham uchraydi. Masalan, qoʻrgʻon soʻzi bilan shakllangan toponimlar Karmana tumanida ham koʻplab uchraydi.

Oʻrtaqoʻrgʻon

Hazoraning janubiy tomonida “Bozor joyi” va “Chuqur hovuz” deb atalmish qishloqlarning tutash joyida joylashgan qishloq boʻlib, hozirgi vaqtda vayrona holga kelib qolgan. “Oʻrta qoʻrgʻon”ning ikki tomonidan ham ana shunday kichik qoʻrgʻonlarning qoldiqlari saqlanib qolgan. Bu qoʻrgʻon uch tomondan sunʼiy devor bilan oʻralgan. Umumiy maydoni 4 gektarni tashkil qiladi.

Chalaqoʻrgʻon

Chalaqoʻrgʻon esa qadimda bitmay qolgan qoʻrgʻon boʻlgani uchun shu nomni olgan va keyinchalik tekislab yuborilgan.

Qoʻrgʻon soʻzi umumturkiy soʻzlardan biri. Ushbu soʻz bugungi kunda bitta maʼnoli boʻlak holiga kelib qolgan. Bu soʻzni diaxron yoʻnalishda qoʻrgʻo-n, qoʻr-gʻon, qoʻrgʻ-on tarzida ikki maʼnoli boʻlakka boʻlish mumkin. Mazkur soʻz apellyativ va onomastik leksikada faol ishlatiluvchi yasama soʻzlardan biri. Soʻz oʻzagi boʻlgan qoʻri maʼnoli boʻlagi qoʻriqlamoq maʼnosida qoʻllanadi. Mazkur soʻz qadimda ham faol ishlatilgan.

Bu soʻz qoʻri-gʻa-n koʻrinishidagi topoasos va formantlarini qoʻshish bilan yasalgan: qoʻrigʻa - qoʻrigʻan - qoʻrgʻan – qoʻrgʻon. Bu soʻzning qoʻrgʻon holatidagi shakli qoʻr-gʻon, qoʻrgʻo-n, qoʻri-gʻa-n holatlaridagi maʼnoli boʻlaklarga boʻlingan. Qoʻrgʻon soʻzining etimoni qoʻri oʻzagiga -gʻa, -n qoʻshimchalari bilan yasalgan qoʻrgʻan soʻzi boʻlib, u qoʻriqlanadigan joy

¹ T. Enazarov. Oʻzbekistondagi baʼzi toponimlarning etimologik talqini . Toshkent. 2004. 48-bet.

ma'nosini ifodalaydi. Keyinchalik bu so'z ot so'z turkumiga ko'chgan va toponimik derevatsiya hodisasi tufayli joylarga nom bo'lib, ko'pincha toponimlarningbiror bir ma'noli qismi bo'lib kelishi odatiy hol. Qo'rg'on so'zi o'zining etimoni saqlay olgan: qo'rig'an. Bu so'zning qal'a, shahar, qishloq, guzar ma'nolari keyingi ma'no taraqqiyoti tufayli yuzaga kelgan.

Qo'rg'on ko'rinishidagi ma'noli bo'laklardan iborat toponimlarning etimonlarini topish uchun qo'ri so'zining qo'riqlamoq shaklidagi arxaik ma'nosi diaxron usulda aniqlandi. Qo'rg'on so'zi hozirgi kunda qo'riqlamoq shaklidagi ilk ma'nosini o'zgartirib, aholi punkti, qishloq, guzar ma'nolarini ifodalaydi. Lekin bu so'z qo'ri holatiga kelgunga qadar ikki qismdan iborat bo'lgan: qo'r (qur) kabi. Bunda qur so'zi aylana ma'nosini bildiradi (qurshamoq). Har holda qo'ra (molning qo'rasi) so'zi ham shunga aloqador. Demak, qo'rg'on so'zi tarixan qo'r (qur)-i-q-on shakllaridan iborat bo'lgan.

Rabot. Bu indikator Raboti Malik, Toshrobot, Xomrabot kabi toponimlar tarkibida uchraydi. Hozirgi aholi tilida ma'nosi unutilgan.

Qumrabot

Aytishlaricha, bu qishloqda qumli tepaliklar ko'p bo'lgan. Qishloq aholisi qumlarni tashib, yer ochib, uylar qurishgan. Bu yerni boshqalar:" Qumtepaliklar orasidagi rabot", ya'ni "Qumrabot" deb atashgan. Shu tariqa qishloq nomi kelib chiqqan.

Raboti malik

Hazoraga yaqin qo'nimgohlardan biri Raboti malik bo'lgan. Buxoroda hukmronlik qilgan qoraxoniylar sultonlaridan bo'lmish Tamg'achxon Ibrohimning o'g'li Shamsulmulk Nosir ibn Ibrohim davrida qurilgan Karvonsaroy ichida sopoldan yasalgan quvurlar orqali sardobadan suv tarmog'i o'tkazilib, yo'lovchilar suv bilan ta'minlangan. Raboti malikdagi karvonsaroy savdogarlarga xizmat qilgan.

Avliyo. Toponimiyada «muqaddas joy, mozar» ma'nosida qo'llaniladi.

Bu indikator ko'pincha **avliyobuva** shaklida «buva» so'zi bilan qo'llaniladi. Shu sababdan bo'lsa kerak «buva» so'zi indikator funksiyasini ham bajaradi.

Ko'pincha toponimlar tarkibidan indikatorlarning o'zi tushirib qoldirilib «buva» so'zi bilan atalaveradi. Masalan: *Buva* (<*Qalandar buva*).

Mulla Aziz bobo qabristoni

Bu qabriston Bog'ot qishlog'ining janubiy qismida joylashgan. Emishki, kim otda yoki eshakda ketayotgan bo'lsa, qabristonga yaqinlashganda, undan tushib piyoda o'tmasa, uning yo o'zi, yo ot yoki eshagi shikast yer ekan. Bu gapni eshitgan Hazrati Xizr bobo Aziz bobo qabri yonidagi tug'ni ushlab: "Ey Aziz, tinchlangin, bu ishingni bundan keyin qilmagin", - degan ekanlar. Shundan so'ng Mulla Aziz bobo tinchlanib, bunday voqealar takrorlanmaydigan bo'lib qolgan emish.

Deggaron

Deggaron qishlog'ining janubida u kishining nomi bilan ataladigan qabriston bor. Hazrati Mavlono Orif Deggaroniyning nur sochuvchi mozorining ziyoratidan ahli dillar ajoyib zavq oladilar. Bu muborak joyning tuprog'ini hazoraliklar muqaddas hisoblaydilar.

Hazrati Qabz ota qabristoni

Deggaroniy jome' masjidining g'arbiy tomonida taxminan 300 metr chamasi narida Hazrati Qabz ota mozori bo'lib, u kishining tarjimai hollari ma'lum emas. U kishining karomatlaridan bir hayvon va insonning siydigi to'xtab qolsa, shu mozorning tevaragidan aylantirilsa darrov sog'ayib kequsidir.

Qishloq. Oqqishloq, Kattaqishloq va xokozo nomlarda uchraydi. Uning toponimlar tarkibida uchrashi shevalar integratsiyasi bilan bog'liq. Hozirgi davrda fan – texnika, radio, televizor va matbuotning naqadar rivojlanganligi xalq shevalarining adabiy tilga yaqinlashuvi ancha tezlashdi. SHubhasiz, bu toponimlarda ham o'z aksini ko'rsatmoqda.

Qishloq so'zi u to shu holatga kelguncha tarixiy so'z yasaliş jarayonini boshidan kechirgan: qish- la – qishla-q - qishloq.

Xo'jalar qishlog'i

Bu qishloqda buyuk zotlar, ya'ni mansabdor, oliy himmat kishilar bo'lgani uchun Xo'jalar qishlog'i deyilgan ekan. Xo'jalar qishlog'ida xo'jalar ko'p bo'lgan deyishadi. Karmana tumanida **Saroy** indikator toponim vazifasida kelgan.

Saroy

Saroy (mo'g'ulcha – turkcha)- o'zbek xalqi tarkibiga kirgan yirik qabilalar uyushmasi. Saroylarning kichik bir guruhi qozoqlarning arg'un qabilasi tarkibida ham bo'lgan.

Saroylar tarkibida bir qancha kichik va katta qabilalar mavjud bo'lgan. Masalan, az-saroy, qipchoq- saroy, qirg'iz- saroy, chin saroy va boshqalar. Bularning har biri o'z navbatida yana bir qancha urug'larga bo'lingan. Saroy tarkibida saroy bo'lmagan juda ko'p etnik guruhlar (az, mojar, qipchoq, qirg'iz, qo'ng'iroq va boshqalar) kirgan. Saroylar etnik birlashma sifatida XIV- XV asrlar davomida Dashti Qipchoqda shakllangan bo'lib, XVI asrda ko'chmanchi o'zbek qabilalari va urug'lari bilan hozirgi O'zbekiston huzuriga kelib joylashgan.

Qadim zamonlarda Sayiltepa sayiliga qatnashish uchun Samarqand, Nurota, Karmana, Yangiqo'rg'on, To'qqiztepa, G'ijduvon, G'ishti tomonlardan mashhur polvonlar, chavandozlar kelishgan. Bu mehmonlar Sayiltepa yaqinidagi xonadonlarda ot-ulovlari bilan joylashtirilgan. Shunday qilib, xonadonlar mehmonlar uchun saroy vazifasini o'tagan.

Tepalik yonidagi qishloqning saroy deb atalishiga birinchi sabab shu bo'lsa, ikkinchisi 92 bo'li o'zbek qabilalaridan (qavmlaridan) biri saroy qabilasi yashaganligidir.

Oronimik indikator – yer yuzasidagi relef bilan bog'liq ob'ektlarga , ularning biror bir xususiyatiga ishora qiluvchi aniqlagich.

Oronim atoqli ot bo'lib kelayotgan har qanday geografik ob'ekt – tog', cho'qqi, dovon, tepa va boshqalar. Masalan, Qoratog', Kelincho'qqi , Langar tog' kabi.

Ma'lumki, qori erib ketaveradigan tog' Qoratog' deb yuritiladi. Qorsiz tog'ning o'simlik dunyosi kambag'al bo'lib, tog' olisdan qoramtir rangda ko'rinadi. Kelincho'qqi deb yuritilishiga sabab cho'qqi balanddan pastga qarab qayrilgan holatdadir. Shuning uchun u egilib, engashib turgan kelinga o'xshatiladi.

Tepalar turli motivlarga ko'ra nomlanadi:

- A) shaxslar nomi bilan atalgan tepalar: Zoyirbobo tepasi , Murodbobo tepasi, Odilbobo tepasi;
- B) etnonimlarga nisbat berilgan: Jaloyir tepa, Turkman tepa, Ko'kyo'tal tepa, Xo'ja Qavola tepa, Go'yanchi tepa, Arabla tepasi, Qatag'on tepasi;
- V) tepaning miqdoriga e'tibor qilingan: Beshtepa, Qo'shtepa kabi;
- G) tepaning tuproq tarkibi hisobga olingan: Chag'il tepa, Oq tepa kabi;
- D) tepalarda yashovchi jonivorlar ob'ektni nomlash uchun asos bo'lgan: Burguttepa, Zuluktepa kabi;
- E) tepaning tabiiy tuzilishi hisobga olingan: Yoymatepa, Yumaloqtepa, Qo'rg'ontepa kabi.

Qurvosh tepa

Deggaron jome' masjidining sharqiy tomonida 3 chaqirimdan ortiqroq masofada Qurvosh tepa deb atalmish yana bir qo'rg'on qurilgan bo'lib, uning uch tomoni qalin devorlar bilan o'ralgan. Bu yerda ham turli kasb-hunarlardan darak beruvchi ayrim qoldiqlarni uchratish mumkin.

Tepaariq

Tepaariq qishlog'i boshqa qishloqlarga nisbatan balandlikda joylashgani bois qishloqqa ariq suvi maxsus dambalar orqali chiqarilgan ekan.

Bu o'rinda tepa va ariq indikatorlari toponimga o'tgan.

Ariq indikator ishtirokidagi toponimlar: **Qumariq**

Qishloqning arig'i qumlik joylardan o'tgan bo'lib, har yili bu ariqni bir necha bor qum bosib, odamdar uni tozalab turishgan.

Ma'lumki, atoqli otlar tilda mavjud bo'lgan lisoniy materiallar – leksemalar va grammatik vositalar asosida ijod qilinadi. Shu bilan birga, atoqli otlarning hosil bo'lishida o'ziga xos xususiyatlar mavjud. Avvalo, tildagi barcha so'zlardan atoqli ot yasalavermaydi, atoqli otni hosil qiluvchi qo'shimchalarning faolligi ham turli darajada, nomni hosil qiluvchi tipik modellar mavjud, atoqli otning tuzilish tiplari ham turli-tuman farqlarga ega. Bular atoqli otlar tizimining ba'zi o'ziga xos yasalish, tuzilish xususiyatlariga egaligini ko'rsatadi.

«Shuni ta'kidlash kerakki, nomshunoslikda qo'llanayotgan «apellyativ» so'zi atoqli ot bo'lmagan har qanday so'zlarni emas, balki atoqli ot uchun asos bo'lgan so'zlarni ko'zda tutadi»¹.

Shuni ta'kidlash lozimki, atoqli otlarni hosil qiluvchi lug'aviy negizlar faqatgina turdosh otlar emas, balki sifat, son, fe'l, taqlidiy, hatto undovlardan iborat bo'lishi mumkin. Bu hol bizning ikkinchi asosiy xulosaga kelishimizga imkon berdi: «Demak, atoqli otlar negizida yotadigan lisoniy material keng qamrovlidir va an'anaviy ma'nodagi «turdosh otlar» tushunchasidan ancha keng va uning doirasiga sig'maydi. Shu sababli, bizning nazarimizda, apellyativ termini, birinchidan, har qanday oddiy so'z ma'nosida emas, balki atoqli ot uchun asos bo'lgan yoki bo'luvchi so'z ma'nosida, ikkinchidan, an'anaviy ravishdagi turdosh ot ma'nosida emas, **turdosh so'zlar** ma'nosida ishlatilgani ma'qul. Mana shu asoslarga ko'ra, onomastikaga oid ishlarda apellyativ terminini yoki **turdosh so'zlar** terminini qo'llash maqsadga muvofiqdir»².

Tilshunoslikda tildagi otlarni dastavval ikki katta guruhga bo'lish an'anaga aylangan: **turdosh otlar** va **atoqli otlar**. Bu tasnif faqat ot turkumini ko'zda tutganligi sababli hajman chegaralidir. Aslida atoqli otlarga tildagi atoqli ot kategoriyasiga kirmaydigan barcha so'zlar (sifat, olmosh, son, fe'l, undov, taqlidiy so'zlar) qarama-qarshi (oppozitsiya) sifatida qo'yilishi mumkin. Bordini, masalaga mana shu nuqtai nazardan yondashilsa, til leksikasini ikki ulkan guruhga ajratish mumkin bo'ladi: **turdosh (oddiy) otlar guruhi** va **atoqli otlar**

¹ «Joy nomlari - xalq tili va ma'naviyatining nodir merosi» mavzuidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. - Navoiy, 1998. – B. 54.

² Begmatov E. O'zbek ismlari imlosi. - Toshkent: Fan, 1972. – B. 5.

guruhi. Onomastikada **apellyativ, apellyativ leksika** degan termin ham mavjud. Ushbu termin tildagi barcha **turdosh so'zlarni** emas, balki atoqli ot yasashga asos bo'lgan yoki bo'luvchi so'zlarni ko'zda tutadi. Demak, **apellyativ leksika** tildagi turdosh so'zlarning bir tarmog'i bo'lib, ular atoqli ot vazifasiga o'tish xususiyatiga ega bo'ladi.

Qayd qilingan holatlar o'zbek onomastikasi terminologiyasini tasniflash ishi ancha murakkab muammo ekanini ko'rsatadi.

Karmana tumani toponimiyasida ham tarkibida turdosh leksika yotgan toponimlar mavjud. Bu toponimlar tarkibidagi turdosh otlar kishi otlari va narsa otlaridan iborat :

Ayronchi – qishloq
Quloqota - qishloq
Cho'yanshayx – qishloq
Xonim – ariq
Kulollar – qishloq
Halovat tepa – tepalik nomi
Chaqmoq tepa - tepalik nomi
Arabxona – qishloq
Qatag'on – qishloq
Jarrabot – qishloq
Poxsa – masjid
Hovuzariq – ariq
Qumariq – ariq

Ushbu toponimlar Karmana tumani va uning atroflaridagi joy nomlari bo'lib, har birining paydo bo'lish sabablari mavjud.

1. 2. Tarkibida atoqli ot toponegizlari yotuvchi toponimlar.

Atoqli ot – yakka predmetning atamasi. Atoqli otda umumlashtirish yo'q, u leksik jihatdan odatda, shartli bo'lib, yakka bir predmetni o'zi kabi yakka predmetdan farqlab berishda xizmat qiluvchi tamg'a vazifasini bajaradi.

Karmana tuman toponimiyasida atoqli ot toponegizlari yotuvchi toponimlar quyidagilar:

Farhod – qo'rg'on

Shirin - qo'rg'on

Navoiy – shahar

Deggaroniy – masjid va qishloq

Zulqarnayn – qishloq

Pochcha Iskandar – qishloq

Chingiz – yaylov va qishloq

Temurshayx – qishloq

Oybek –maktab

Usmon Yusubov – mahalla

Nodira – ko'cha.

Etnonimlar ham toponimiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Etnonim so'zi yunoncha – etnos – xalq , onim – nom, ism, har qanday etnos (xalq, guruh, qabila, urug', millat) ning nomi : o'zbek, nayman, qang'li, beshbola va boshqalar.¹ Karmana tumanidagi aksariyat qishloqlar juda qadimiy , ularning ildizlari tosh asriga borib taqaladi. Karmanadagi etnonimlar quyidagilar:

Mang'it - qadimgi turkiy qabilalardan biri , o'zbek xalqi tarkibiga kirgan yirik etnik birlik.

Qatag'on – o'zbek millati tarkibidagi urug'lardan biri. Bir qismi qirg'iz va qozoqlar tarkibiga kirgan. Professor T . Nafasov Qatag'on , barlos, barqut urug'larining o'zaro yaqinligi to'g'risida fikr bildirgan.²

Bog'ot – qadimda bag'alan (bog'lon) urug'i vakillari yashagan bo'lishi mumkin.

Arg'in - Movarounnahr va asosan Amudaryo buylarida qadimdan istiqomat qilib kelgan turkiy qabila.

¹ S. Qorayev. O'zbekiston viloyatlari toponimlari. Toshkent . 2005. 221 – bet.

² T. Nafasov, O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati. Toshkent. 1988. 192- bet.

Bahrin - turklashgan mo'g'ul qabilalaridan birining nomi. Mo'g'ullar hukmronligi davrida Dashti Qipchoqdan kelib o'rtnashgan.

Jaloyir – o'zbek - turk yirik urug'laridan biri.

Tama - mo'g'ul qabilasi bo'lib, Dashti Qipchoq o'zbeklari tarkibiga kiradi. XV – XVI asrlarda Zarafshon daryosi havzasiga kelib o'rtnashgan.

Qiyot – o'zbek qavrlaridan birining nomini anglatadi. Abulg'ozi Bahodirxon fikricha, Qiyot - mo'g'ulcha tog'dan oqqan sel ma'nosini anglatadi.

Qavola - o'zbek urug'laridan bo'lgan. Q.Raximov jamoa xo'jaligi 9 – brigadadagi qishloq.

Turkman – turkman - o'zbek millatlari tarkibiga qabilalardan biri. Qishloq aholisi Turkmanistonning Chorjo'y, Mari, Bayramali viloyatlaridan kelib qolgan. Turkman urug'laridandir.¹

Shuningdek, Karmana shahri hududida Ulug'lar, Gadoylar, Xo'jalar, Garruklar singari eski qishloqlari bo'lgan. Hozir ulardan ayrimlarining nomlari qolgan.

Sardoba - Sardoba forsha “sard” sovuq, “oba” suvli ma'nosini bildirib, suv tanqis yerlarda uni saqlash uchun pishiq g'ishtdan qurilgan gumbazli hovuzdir. Sardobaning devori silindr shaklida bo'lib, qalinligi 1,5 metr atrofida, tepasi tuynukli. Sardobaga kirish uchun eshik ham o'rnatilgan. Suvni toza saqlash maqsadida old tomoni devor bilan o'ralgan.

Bog'ot - Qatog'on qishlog'ining g'arbida joylashgan qishloqlardan biri bo'lib, bunda qadimda bag'alon (bog'lon) urug'i vakillari yashagan. Bog'otni o'sha qishloq aholisi “Bog'i chorbog'i ko'p, bog'zor” deb talqin qiladilar. Ammo tarixiy manbalarga asosan toponimni “Bog'ialon” deb tushunish, ya'ni qadimgi Alon qavmining nomi bilan bog'lash ancha yaqindir. Chunki Xorazmda eron guruhi tillarida gaplashuvchi Alon qabilalarining yashagnaligi haqida ma'lumotlar bor. Shuningdek, bu yerda

¹ A. Xotamov, Sh. Xalilov. Yillar sadosi. Toshkent. 1995. 35-37 betlar.

saqlanib qolgan Alonlar, Alon qal'a kabi nomlar bu fikrni yana bir bor isbotlaydi.

Qarshiliq - Hazora hududidagi har bir qishloqning o'z tarixi bor. Qadimda Qarshi tomondan chorva mollarini o'tlatib kelgan kishilar o'troq bo'lib qolganligi sababli qishloqlardan biri Qarshiliq qishlog'i deb atalgan. Shu qishloqliklarning o'zlari ham ajdodlari Qarshidan bo'lganligini tasdiqlaydi. Qarshiliq qishlog'ining g'arbiy tomonida Qatog'on qishlog'i bo'lib, bu yerda o'zbeklarning qatag'on urug'iga mansub bo'lgan kishilar yashaganlar.

Qatog'on - Qatag'on qishlog'i bir necha urug'larga bo'lingan. O'tmishda ular chorvachilik bilan shug'ullanganlar. Asrlar davomida qatog'onliklar mahalliy xalqlar ta'siri ostida o'troqlashib dehqonchilikka moslashganlar.

Plova - qishlog'i so'zining etimologiyasi ma'lum emas. Plova qishlog'i qadimdan hunarmandlar maskani bo'lib tanilgan. Kashta tikishning nozik usullarini o'zlashtirgan. Xotin-qizlarning bug'chaga so'zana, joynamoz, belbog', yostiq, po'sh, taka, joypo'shlari, takapo'sh nafaqat Hazorada, balki butun viloyatda mashhur bo'lgan.

Mavjud adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, hozirgi davr nomshunosligida mikrotoponim va makrotoponim tushunchalari va bu tushuncha doirasiga kiruvchi nomlar yetarli ravishda chegaralangan emas.

Mikrotoponimlar kichik, mayda geografik ob'ektlar nomi ekani aniq. Lekin ushbu hodisalar orasidagi chegarani belgilash lozim bo'ladi. Bizning ushbu muammo buyicha kuzatishlarimiz bunday oraliq (chegara) oykonimlar uchun qishloq, shahar nomi, oronimlar uchun tog' nomi, gidronimlar uchun daryo nomi bo'lishi maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi.

Har qanday atoqli ot, jumladan, toponimlar ham tildagi avvalda mavjud bo'lgan oddiy so'zlardan yasaladi. Ammo tildagi barcha leksemalardan atoqli ot yasalavermaydi. Atoqli ot vazifasida qo'llana oluvchi ma'lum leksik guruhlar mavjud. Bunday so'zlar nomshunoslikda apellyativ asos deb yuritiladi.

Apellyativ atoqli ot yasash uchun foydalaniladigan leksemalar yig'indisidir. Atoqli ot faqat turdosh otlardan yasalmaydi, balki bu vazifada sifat, olmosh, fe'l, son va boshqa so'z turkumlari ham qatnashadi. Shu sababli atoqli otga lug'aviy negizlar vazifasini o'taydigan lisoniy materialni apellyativ asos yoki turdosh so'zlar deb yuritish maqsadga muvofiq.

Atoqli otlar atoqli otlardan, ya'ni antroponimik asos, toponimik asos, etnonimik asosdan ham yasaladi. Ushbu negizlardan hosil qilingan joy nomlari toponimlar, antrotoponimlar, etnotoponimlar deb yuritiladi.

Karmana tuman toponimlari lug'aviy va grammatik tarkibiga ko'ra uchga bo'linadi:

1. Apellyativ asosli nomlar .
2. Formantli nomlar.
3. Toponimik aniqlagichli nomlar.

Atoqli ot uchun asos bo'luvchi apellyativlar, ulardan hosil qilinuvchi atoqli ot miqdoridan doimo kam bo'ladi.

II - BOB

Karmana toponimlarining tuzilishi va grammatik xususiyatlari

Har qanday tilning lug'aviy boyligi ko'p davrlarning mahsulidir. Tilda biror so'z paydo bo'lishi bilan birga uning lisoniy tuzilishi ham o'zgarib, shakllanib va qat'iylashib boradi. Tilda ba'zi so'zlarning tub so'z holatida saqlangani, aslida yasama bo'lgan ba'zi so'zlarning hozirda tub so'z sifatida tushunilishi, tub so'zlardan yasama so'zlarning hosil qilinishi, ba'zi qo'shma so'zlarning sodda so'z shakliga, ayrim birikma tipli so'zlarning qo'shma so'z shakliga kelib qolishi va boshqalar qayd qilingan tarixiy o'zgarish va rivojlanish natijasidir.

Har qanday tilning toponimiya tizimi ma'lum bir davrninggina ma'lum bir ijtimoiy-siyosiy qarashlarininggina mahsuli emas. Toponimiya tizimi til onomastik sistemasining ko'p asrlik rivoji mahsulidir. Shu sababli o'zbek toponimiyasi tizimida eng qadimiy toponimlar, tarixiy toponimlar, yaqin o'tmish toponimlari, yangi davr toponimlari va tamoman yangi toponimlar yonma –yon yashamoqda.¹

Albatta, toponimiya tizimidagi barcha nomlarning qachon paydo bo'lganligini aniq belgilashning iloji yo'q. Chunki, ko'pgina nomlari qachon kim tomonidan belgilangani ma'lum emas. Shu sababli joy nomlarining ijodkori xalq deb baholaydi, hamda bunday nomlar tabiiy toponimlar. Xalqona nomlar deb yuritiladi. Nomlarning paydo bo'lish tarixi va asoslari unitilgan bo'lsa-da, har qanday toponimning til mahsuli sifatidagi xususiyatlari saqlangan bo'ladi. Bu ko'pincha nomning grammatik strukturasini tahlil qilish orqali belgilanadi. Ayniqsa, iste'moldan chiqqan nomlar o'rnini to'ldirish, yangi ob'ektlarga yangi nomlar berish muayyan lisoniy qonuniyatlar asosida amalga oshadi. Bunga ikki yo'l ko'zga aniq tashlanib turadi.

1. Yangi nom ijod qilish, yasash usuli.
2. O'zga tillardan nom o'zlashtirish usuli.

¹ E. Begmatov. Joy nomlari – ma'naviyat ko'zgusi. Toshkent. 1998. 33 –bet.

Mana shu ikki yo'l bilan toponimiya boyib, yangilanib boradi. Toponimik tizimning o'zgarishi va boyishida har ikkala usul ham muhim. Ammo yangi nom ijod qilish ya'ni yangi nom yasash yo'li tilning o'z ichki resurslariga, imkoniyatlariga tayangani unda tilning milliylik ruhi saqlanadigan bo'lgani uchun afzalroq, deb baholanadi.

Toponimiya ishning oldingi sahifalarida qayd etilganidek, tildagi mavjud leksik negizlarga tayandi. Shu bilan birga toponimiyaning boyish yo'llari ham tildagi bor bo'lgan imkoniyatlardan foydalanadi. Ammo oddiy leksika bilan atoqli otlarning yasashida u yoki bu usul ustunlik qilishi bilan farqlanadi. Masalan, Karmana toponimiyasida nomlar yasashida sintaktik va morfologik usuli ustunlik qiladi. Konversiya usuli esa kammahsuldir.

2.1. Toponimlarning morfologik usulda yasashi

Toponimlarning morfologik (affiksatsiya) usulida yasashi masalasi nomshunoslikdagi eng chalkash, munozarali muammolardan biridir. Chunki hozirga qadar o'zbek nomshunoslari yozgan ko'pgina tadqiqotlarda toponimga asos bo'lgan so'zning yasashi bilan toponimning yasashi farqlanmaydi, toponegizni yasayotgan so'z yasovchi morfemalar toponim yasovchilar deb talqin qilinadi. Biz bu o'rinda masalaga aniqlik kiritish uchun ikkita ishdagi bu masalaga oid talqinlarni kiritmoqchimiz.

N. Oxunov "Qo'qon gruppasi rayonlari toponimiyasi" mavzuidagi ishida joy nomlarining morfologik usulda yasashi haqida gapirib, shodlik, Do'stlik nomlari -lik yordamida yasalgan toponimlar deb izohlangan.

Qayd qilingan toponimlarning negizida aslida o'zbek tilida avvaldan mavjud yasalma etnonimlar (Podachi, Darakchi, Qushchi) kasb-hunar leksikasi (Temirchi, Misgarlik) yoki tilda o'sha shaklda tayyor holda uchraydigan turdosh otlar yotibdi.

Demak, keltirilgan holatlarda nom tarkibida kelgan, qayd qilingan qo'shimchalar toponimlar emas, balki, u uchun asos bo'lgan toponegizlar apellyativlarni yasagan va ushbu apellyativlar o'sha shaklda, tayyor holda toponimlar vazifasiga kirishgan.

Mana shu kabi chalkashliklar o'zbek toponimikasida hozirgacha bajarilgan toponimik tadqiqotlarning deyarli barchasida uchraydi. Demak, toponimlarning morfologik usulda yasalishi haqida gap borarkan, atoqli otning yasaliş jarayonini to'g'ri belgilash muhimdir. Bu o'rinda Z.Do'simovning ushbu fikrlari haqiqiydir. Shuni qayd etish lozimki, toponimika muammolariga bag'ishlangan ishlarida toponimlarning yasaliş va tuziliş turlicha talqin qilinadi. Ushbu hol masalaning biroz shakllanishiga olib keldi. Ba'zi qo'shimchalar hech bir asossiz morfema deb talqin qilinadi. Shunisi aniqki, toponimlarning yasalişini tadqiq qilish toponimikaning dolzarb muammolaridan biridir. Ko'pgina ishlarda -lik, -chi+lik, -lik yordamida yasalgan atoqli ot deb izohlanishiga Z.Do'simov qo'shilmaydi va shunday yozadi: Konchilik, Zargarlik, Paxtakor kabi toponimlarning tarkibidagi qo'shimchalarning atoqli ot yasayotgani haqida gap bo'lishi mumkin emas. Ular nol qo'shimchali toponimlardir.

Biz professor Z.Do'simovning yuqoridagi fikrlariga to'la qo'shilamiz, ammo shu bilan birga qayd qilingan qo'shimchalar toponim yasashda mutlaqo ishtirok etmaydi ,deb hisoblash o'rinsiz. Chunki mavjud ba'zi ishlarda bu qo'shimchalar toponim hosil qilgan holatlar to'g'ri tahlil qilingan . Masalan, Zanjirli, Toshlik va boshqalar.

Yuqoridagi tahlillardan shunday xulosa chiqardikki, toponim tarkibida so'z yasovchi qo'shimchalar uchrashi mumkin. Ammo shu morfema funksional jihatdan yoki toponegiz (apellyativga) yoki toponimga tegishli bo'ladi. Shu sababli har safar konkret materialdan kelib chiqqan holda fikr yuritishimiz maqsadga muvofiq.

Topoformantlar apellyativ leksikada onomastik leksika uchun topoleksema yasaydigan qo'shimchalar hisoblanadi. Yasovchilik xususiyatiga egaligi bilan topoformantlar so'z yasash jarayonida qo'llanuvchi so'z yasovchi qo'shimchalarga o'xshasa hamki, vazifa va faollik darajasi jihatidan farqlanadi. Mana shu farq onomastik nomlanish jarayonida hamki onomastik derevatsiyada

o'z aksini ko'rsatadi. Onomastik nomlanish jarayoni ijtimoiy ehtiyoj natijasida topoob'ektlarni nomlashning ikkinchi yakunlovchi bosqichi hisoblanadi.

Joy nomlari tarkibidagi topoformantlar so'z yasash jarayonida ishlatiladigan so'z yasovchi qo'shimchalar kabi faol qo'llanmaydi. Demak, apellyativ leksikadagi so'z yasovchi qo'shimchalar bilan birga onomastikadagi topoformantlar boshqa –boshqa vazifani bajaradi. Bunday qo'shimcha va topoformantlar onomastik xususiyatlarga ega bo'ladi. So'z yasashdagi yasovchi qo'shimchalar yangi joy nomlari yasaydi. Onomastikadagi topoformantlar esa topoasosga qo'shilib, toponimlashuv jarayonida yangi nom yasaydi. Turkiy komponentli toponimlardagi topoformantlarga quyidagilar misol bo'ladi: **-al, -ay, -ak, -ar, -vul, -gun, -i, -il, -kan, -lash, -li, -lik, -loq, -ma, -ni, -ning, -oq, -ul, -chi, -cha, -t** va boshqalar. Bunday topoformantlar haqida N. Oxunov O'zbekiston va Ozarbayjondagi toponimlarni qiyosiy o'rganish asosida o'z munosabatini bildirgan. Topoformantlar deb ko'rsatilgan affikslarning ko'pchiligi apellyativ leksikada so'z yasovchi qo'shimcha (**-lik, -chi, -cha, -t, -ak**) ba'zilar so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar (**-ning, -ni, -gan kabilar**) guruhiga kirishini eslash ham, so'z yasovchi qo'shimchalar grammatikaning o'rganish ob'ektiligini, topoformantlar esa toponimikaning tadqiq etish ob'ekti ekanligini ko'rsatib turibdi.

Topoformantlarni toponimlar tarkibidan ajratib o'rganganda so'z yasalish vositalari bo'lgan yasovchi qo'shimchalarni topoformant deyishdan saqlanish kerak, chunki, so'z to toponimga aylangunicha ming bir chig'iridand o'tib kelgan. Masalan, Tinchlik degan joy nomi tez-tez qo'llanadi. Shu toponimning o'zagi fe'l so'z turkumiga oid **tin** bo'lib, unga qo'shilgan **-ch** so'z yasovchi qo'shimcha, **-lik** esa topoformantlardan biri hisoblanadi: tin / ch / lik.

Ushbu jarayon toponimlashuv hodisasi o'zaro bog'liq bo'lgan bir holat yuz beradi. Agar qo'shimcha so'zga qo'shilsa-yu, hosil bo'lgan so'z toponimga aylanmasa, unda so'zga qo'shilgan qo'shimcha topoformantlik vazifasini bajarib kelmagan, balki so'z yasovchilik vazifasini bajargan. Albatta, bunda

toponimlashuv hodisasi hamda qo'shimchaga xos bo'lgan topoformantlik vazifasining joy nomlari yasashdagi o'rni so'z yasash jarayonida farqlanadi.

So'zsiz, topoasos apellyativ leksikadagi ma'nosi bilan topoformantga bog'langan va toponimlashuv natijasida geografik nomga ko'chgan bunday so'zlarga: taqa chi < Taqachi, quduqcha < Quduqcha va boshqalar. Ishning asosiy mavzui bo'lgan Karmana toponimiyasida formantli toponimlar kam uchraydi. Bular: Tutli, Do'rmoncha, Quduqcha, Ayronchi, Qarshilik va boshqalar.

Bizning kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, karmana tuman toponimiyasida affiksatsiya usulida nom yasash unchalik xarakterli emas, balki kammahsuldir. Bu toponimlar quyidagilar: Qarshilik, Tamg'alik, Konchilik, Tinchlik, Yoshlik.

2.2. Toponimlarning sintaktik usulda yasalishi

Birdan ortiq negizlarni qo'shish orqali yangi so'z hosil qilish so'z yasashining sintaktik usuli deb ataladi. Qo'shma so'zlarning hosil bo'lishi so'z yasashning grammatik tipiga mansub bo'lib, bu usul quyidagilarni ko'zda tutadi: «Grammatik so'z yasash (affiks yordamida so'z yasash – affiksatsiya, **so'z qo'shish yo'li bilan yasash** –kompozitsiya so'zni bir leksik-grammatik kategoriyadan boshqasiga, boshqa turkumga ko'chirish –kategorial ko'chish yo'li bilan yasash – konversiya»¹.

So'z yasashning barcha turlarida bo'lgani kabi qo'shma so'zlar yasashdan maqsad ham yangi so'z ijod qilishdir: «Kompozitsiya yo'li bilan so'z yasash kompozitalar – qo'shma so'zlar yaratish bo'lib, bunda ikki (yo undan ortiq) so'zning qo'shilishi yangi leksik birlik – leksemani hosil qiladi. So'z yasashning bu tipi ham o'zbek tilidagi aktiv yo'llardandir»².

Odatda qo'shma so'zlar tildagi avvaldan mavjud qoliplarga mos ravishda yasaladi. Qo'shma so'z sodda so'z kabi yaxlit bir so'z, tilning bir butun birligi

¹ O'zbek tili grammatikasi. I. 1975. – B. 22.

² O'sha asar. – B. 32-33.

tarzida tushuniladi va foydalaniladi. Qo'shma so'zning bir butun so'z holatiga kelishi unga quyidagi lisoniy xususiyatlarni baxsh etadi: «qo'shma so'z bir butun leksik ma'no – bir murakkab tushuncha va yaxlit shakllanish – grammatik strukturasining ham yaxlitligi, fonetik butunlik bilan xarakterlanadi. Demak, u bir so'zdir, uning komponentlari – qismlari orasida grammatik aloqa yo'q (lekin semantik aloqa bor), u har qanday so'z qo'shilmasida – gapda, so'z birikmasida – bir sintaktik funksiyani bajaradi. Qo'shma so'z, sodda so'zlar kabi, tilning birligi bo'lib, undan nutqda har gal tayyor leksik material sifatida foydalanamiz»¹.

Qo'shma so'zning mohiyati va xususiyatlari yuzasidan yuqorida aytilgan mulohazalar qo'shma terminlar uchun ham tegishlidir.

Hozirga qadar o'zbek tili terminologiyasi mavzularida yozilgan ishlarning deyarli barchasida qo'shma terminlarning yasash xususiyatlari tahlil qilingan va ba'zi alohida maqolalar e'lon qilingan.

O'zbek tili terminologiyasi tizimida qo'shma terminlarning o'rni va miqdori masalasida turli xil fikrlar aytilgan. Tekshirishlar qo'shma termin hosil qilish fanning ba'zi sohalarida faol bo'lsa, boshqalarida nafaol ekanligini ko'rsatadi.

Umuman, bizning mavjud adabiyotlar bo'yicha kuzatishlarimiz o'zbek tili terminologiyasida qo'shma termin yasash faol va sermahsul, degan fikr deyarli hech kim tomonidan aytilmaganini ko'rsatdi. Bu o'rinda, albatta, sintaktik usul bilan qo'shma termin yasash (leksemaga teng bo'lgan) va birikmali termin hosil qilish (so'z birikmasiga teng bo'lgan) farqlash lozim bo'ladi. Keyingi tip terminlar o'zbek tilida miqdoran ko'p bo'lib, biz ularga ishning keyingi betlarida to'xtalamiz.

Onomastikada qo'shma terminlarning kam uchrashi, bizning nazarimizda, bu soha terminologiyasining hali tamoman shakllanib yetmagani bilan izohlanadi. Bu hol, birinchidan, ko'pgina terminlarning o'zlashma shaklda ishlatilayotganida, ikkinchidan, onomastikaga oid ko'pgina tushunchalarning

¹ O'zbek tili grammatikasi. I. 1975. – B. 33.

tavsifiy xarakterdagi birikma terminlar orqali ifodalanayotganida ko'rinadi. Bunday birikmalarning ba'zilar kelgusida shakliy qisqarishga uchrashi va sodda yoki qo'shma so'zga aylanishi mumkin.

Qo'shma terminlar haqida gap borar ekan, ushbu hodisaga yaqin turuvchi, ammo undan tamoman farqli bo'lgan bitta modelga to'xtash lozim bo'ladi. Bu o'zbek tilida rus tilining ta'sirida paydo bo'lgan, u tildan aynan olingan yoki kalkalab olingan vitse-prezident, general-mayor, amper-sekund, aralashtirgich-yuklagich-changlagich (opo'skovatel – opo'livatel) kabi terminlardir. Ushbu tip terminlar, R.Doniyorovning keltirishicha, rus tilshunosligida «tarkibli», «murakkab tarkibli», «qo'shma tarkibli», «ikki tarkibli qo'shilma», «ikki tarkibli» kabi nomlar bilan yuritib kelinadi¹. «O'zbek tili grammatikasi» ishida tarkibli so'z (sostavli so'z) emas, **tuzma** deb atash (muallif Sh.Rahmatullayev) taklif qilinadi, ammo bunday atashning sababi asoslanilmaydi².

Ma'lumki, R.Doniyorov gap yuritilayotgan terminlar tipini «tarkibli», «ikki asosli» (dvuxosnovnye), shuningdek, tuzma deb atashga qarshi chiqqani ma'lum.

Demak, bunday termin tipi chiziqcha (defis) bilan yoziladi, bu hol uni boshqa tip terminlardan shaklan farqlaydi. Ammo chiziqcha bilan yozilish terminning «muhim belgisi» bo'la oladimi? Bizningcha, belgilardan biri bo'lishi mumkin, ammo asosiy emas. Bizning nazarimizda, bunday terminlarni baholashda ular orasidagi ma'noviy va grammatik munosabatga e'tibor qilmoq kerak.

Qo'shma so'zlarda, so'z birikmalarida birinchi turgan so'z ko'p holda aniqlovchi, ikkinchisi esa aniqlanmish munosabatida bo'ladi. Onomastikada uchraydigan antroponim-aniqlagich, ism-bag'ishlov tipli terminlarda esa aksincha - ikkinchi qism (ikkinchi so'z) birinchisining biror belgi, xususiyatini aniqlab keladi: antroponim-aniqlagich–aniqlagich vazifasidagi antroponim, ism–bag'ishlov – bolaga bo'lgan istaklarni ifoda qiluvchi ism, laqab–taxallus –

¹ Doniyorov R. Keltirilgan avtoreferat. – B. 16.

² O'zbek tili grammatikasi. I. 1975. – B. 270.

taxallus vazifasidagi laqab kabi. Qayd qilingan terminlarda ikkinchi qismga qo'shilgan, qo'shaloq qism tarzida keladi. Bu tip termin komponentlari qo'shma so'zlardagi kabi tamoman qo'shib (birikib) yaxlit holga kelgan emas. Shu sababli chiziqcha ularni ajratib turadi. Qo'shma termin komponentlarida funksional mustaqillik yo'q, bu termin komponentlari ma'lum darajada mustaqil holda bo'ladi. Shuningdek, ushbu tip terminlarning komponentlari birikmali terminlarning qismlari kabi tamoman ajralib turmaydi ham. Ular orasidagi birikish munosabatini chiziqcha ifodalab turadi.

Xullas, yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqqan holda biz bu tip terminlarni **qo'shaloq komponentli terminlar** yoki qisqaroq qilib **qo'shaloq terminlar** deb yuritishni taklif qilamiz.

O'zbek onomastikasida 20ga yaqin qo'shaloq komponentli terminlar uchraydi: toponim–apellyativ, toponim – arxaizm, nom–ibora va b.

Shunday qilib, qo'shaloq terminlar juft va qo'shma so'zlardan farqlanadi. Qo'shaloq terminlarda mustaqil leksemalarning juftlashishdan ko'ra qo'shaloqlashuvi, qo'shaloq holda kelishi sezilib turadi. Qo'shaloq terminning birinchi qismi ikkinchi qismning hosil bo'lishida xizmat qiluvchi lisoniy materialga ishora qiladi. Masalan: antroponim–apellyativ terminida asosiy komponent apellyativning antroponimdan iborat ekaniga ishora qilinmoqda. Shuningdek, laqab–toponim, laqab–taxallus ham taxallusning laqabdan yasalganligiga ishora bor.

Qo'shaloq qolipli so'zlar nutqiy ixchamlikka xizmat qiladi. Chunonchi «frazadan iborat bo'lgan nom» deyish o'rniga fraza–nom deyish, «mo'ljal (oriyentir uchun xizmat qiluvchi nom)» deyish o'rniga «toponim–oriyentir» deyish ham ixcham, ham qulaydir.

O'zbek onomastikasi terminologiyasida ba'zi juft terminlar ham uchraydi. Juft so'zlar haqida gap yuritilgan adabiyotlarda qo'shma so'z va so'z birikmasidan farqli ravishda «Juft so'zning komponentlari esa hokim va tobe

munosabatida emas, balki tenglik munosabatida bo'ladi»¹ deb ko'rsatiladi. Shuningdek, juft so'zlarning yasash kompozitsiya usulida yasash deb qaralsada, «lekin juft so'zlarda haqiqiy ma'nodagi so'z yasashi (yangi so'z hosil bo'lishi) ko'rinmaydi, ya'ni ikki so'zni o'zaro juftlash (bog'lash) orqali yangi so'z hosil qilish hodisasi hozirgi o'zbek tilida yo'q»².

Karmana tumani hududlaridan to'plangan toponimik materialning asosiy qismini qo'shma toponimlar tashkil qilishi ham bu mulohazalarimizning to'g'riligini tasdiqlaydi.

Shunday qilib, sintaktik usul qo'shma toponimlarining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Qo'shma toponimni yuzaga keltiruvchi birliklar ma'no va grammatik jihatdan bir butunlikka teng leksema hisoblanadi.

Qo'shma toponimlarning toponegizi birdan ortiq so'zdan tashkil topgani tufayli bu negizni tashkil etgan komponentlar toponimlikkacha bo'lgan bosqichda ma'lum sintaktik munosabat asosida uyushgan bo'ladi. Buning asosiy ko'rinishlari qo'yidagilar:

1. Sifatlovchi va sifatlanmish munosabatidagi toponegizlar: Yangiariq, Yangiyo'l, Oqoltin, Yangi qishloq.
2. Relyativ munosabatli toponegizlar: Chorvoqguzar.
3. Ega va kesim munosabatli toponegizlar: Soykeldi (qishloq).

Qo'shma komponentli toponimlarning morfologik tarkibi quyidagicha:

1. Ot + ot modeli: Dalvarzintepa, Umaramintepa, Darvozaqiz, Toshhovuz va boshqalar.
2. Sifat + ot modeli: Yangiqishloq, Qiziloy, Qizillashkar, Yomonqiyot.
3. Sifat + sifat: Shirinobod, Yangiobod va b.
4. Con +ot: Beshbola, Uchtut.
5. Ot +fe'l: Boyqochdi, Soykeldi va b.

¹ Hojiyev A. O'zbek tilida qo'shma, juft va takroriy so'zlar. – Toshkent.: O'zFA nashriyoti, 1963. – B. 40.

² O'zbek tili grammatikasi. I. 1975. – B.41-42.

Soʻz yasashning sintaktik usuli , umuman, birdan ortiq lugʻaviy negizlarni qoʻshishdan iborat. Ammo negizlarning qoʻshilishi turli holatda boʻlishi mumkin. Bunda ikki struktura tip koʻzga tashlanadi:

1. Yaxlit monolit holatida birikish.
2. Erkin, ochiq holatda birikish.

Qoʻshma nomlar toponegizlarining erkin , ochiq holda qoʻshiluvini soʻz birikmasi xarakterida boʻladi, ammo bu birikma yaxlit nom tarzida tushiniladi. Toponimlarda ushbu model ikki koʻrinishga ega:

1. Turkiy (oʻzbekcha) izofali modellar.
2. Tojikcha izofali modellar.

Toponimlarning sintaktik usulda yasaliishi haqida gap borganda, chinakam qoʻshma toponimlarni “aldoqchi” qoʻshma shakllardan farqlash muhimdir. Buni farqlamaslik odatda nomlar yasaliishining konversiya va sintaktik usullarini farqlamaslikdan yuzaga keladi. Qoʻshma strukturali toponim ikki xil boʻladi:

a) qoʻshma toponimning yasaliishi;

b) tayyor qoʻshma nomlarning toponim vazifasiga oʻtishi. Bularning birinchisigina qoʻshma nom yasaliishidir. Ikkinchisi esa toponimlikkacha boʻlgan qoʻshma soʻz yasaliishidir. Birinchi holat esa onamastik sath (turdosh leksika) mahsulidir. Masalan, qoʻshma antroponimlardan yasalgan toponimlar: Tesha Shirin; Yomonqiyot, Oqoltin kabi. Keyingi tip toponimlar juda kam uchraydi.

Karmana tuman toponimiyasida sintaktik usulda yasalgan toponimlar koʻpchilikni tashkil etadi. Bu toponimlar tarix va bugun oʻrtasida katta koʻprik vazifasini oʻtaydi. Karmana tuman toponimiyasida sintaktik usul bilan yasalgan toponimlar talaygina. Bular quyidagilar:

Arabxona	Halovat tepa
Toshrobot	Chaqmoq tepa
Xoncharbogʻ	Togʻ guzar
Yangi ariq	Sarmishsoy
Paxta obod	Yangirabot
Koʻxna qoʻrgʻon	Malik rabot

Jarrabot	Nosirbodom
O'rtaqo'rg'on	Charmgar chorbog'
Chalaqo'rg'on	Gulchorbog'
Qumariq	Mirza charbog'
Tepaariq	Asqarobod
Hovuzariq	Darxon tepa
Zirabuloq	Jaloyir tepa
Sarmish soy	Tali Burqut tepa

Yuqoridagi toponimlarning aksariyati hozirgi kunga kelib o'zgargan. Ayniqsa tepalarning ko'pchiligi tekislanib, chorbog'lar o'rniga bosh inshootlar va binolar qad rostlagan.

2.3. Toponim yasalishining onomastik konversiya usuli

Biz yuqorida toponimlarning morfologik sintaktik usulda yasalish xususiyatlari bilan tanishdik. Ular haqidagi bahs-munozarali muammo va kamchiliklar bir talay. Quyida biz toponim yasalishining onomastik konversiya usuli bilan tanishib chiqamiz.

Turkiy komponentli yasama toponimlarning bir necha ma'noli qismlardan iborat bo'lishi e'tiborga olinsa, ular tarkibidagi topoasos hamda topoformantlarning tuzulishiga bir qancha guruhlariga bo'linishi ham qonuniy hol sanaladi. Bunday yasama toponimlarning tarkibidagi ma'noli qismlarning joylashishi o'rniga ko'ra uchta guruhga bo'lib o'rganish ham maqsadga muvofiqdir. Mana shularni hisobga olgan holda yasama toponimlar quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1. Toponimlarda topoasos .
2. Toponimlarda topoformantlar.
3. Toponimlarda toponimik aniqlagichlar.

Turkiy komponentli yasama toponimlar tarkibida asosan topoasos topoformantlar bo'lishi odatiy hollardan biridir.

Joy nomlari tarkibidagi topoasoslar, ya'ni o'zaklar turkiy tillarga, xususan, o'zbek tiliga oid bo'lgan so'zlardan tashkil topgan. Ular bir, ikki, nari

borsa uch bo'g'inli ko'rinishlarga ega. Masalan, ovloq, arpa, ariq, adir, yo'l, bel, besh, qo'chqor, qizil, quruq, chang, yuz va boshqalar.

E'tibor berilsa, bu yerda qayd etilgan topoformantlar apellyativ leksikadagi so'zlarning o'zi. Bularni topoasos va topoformantlarga ajratishning ikki sababi bor.

1. Tildagi to'g'ri kelgan so'zlar bilan joy nomlari shakllanmaydi.
2. Har bir sohaning o'ziga xos terminlari bo'lganidek, toponimikaga oid ishlarda topoasos, topoformant, topoleksema kabi terminlarni qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida qayd qilingan so'zlarning toponimik asos hamda topoformant vazifasida kelishi o'rganilayotgan hudud toponimiyasi uchun xos xususiyatlardan biridir.

Topoasoslarning oldidan va ko'p hollarda ulardan so'ng keladigan topoformantlar o'zaro birikib, toponimlashuv hodisasi yoki onomastik konversiya usuli ta'sirida joy nomlarini shakllantiradi. So'z yasalishi hamda toponimlashuv hodisasi boshqa – boshqa hodisalardir. So'z yasalishi jarayonida hosil bo'lgan yangi so'z o'z – o'zidan toponim bo'la olmasligini uning toponim bo'lishi uchun toponimlashuv hodisasi yuz berishi shartligini qayd yetishni o'rinli deb bilamiz. Masalan, tosh + loq > toshloq > Toshloq; qo'n + chi + lik > ko'nchilik > Ko'nchilik; yalang + zor > yalangzor > Yalangzor kabilar.

Turkiy yasama toponimlarda topoasos tub va yasama so'z shakllarida uchrashi ularning xalq tili hamda shevalar bilan uzviy aloqadorligini qo'rsatadi. Demak, turkiy sodda toponimlarda yasovchi asos ko'p hollarda bir, ikki va uch bo'g'inli so'zlardan iborat bo'ladi.

Karmana toponimiyasida toponimlarning onomastik konversiya usulida yasalishi kammahsuldir. Bu toponimlar quyidagilar:

olma + zor > olmazor > Olmazor

ayron + chi > ayronchi > Ayronchi

tamg'a + li > tamg'ali > Tamg'ali

yosh + lik > yoshlik > Yoshlik

ko'n + chi + lik > ko'nchilik > Ko'nchilik

tin + ch +lik > tinchlik > Tinchlik va b.

Bu toponimlarda topoformantlar topoasoslarga birikib , onomastik konversiya ya'ni toponimlashuv hodisasiz yuz bergan.

Karmana toponimiyasi fondi ikki usulda rivojlanib va boyib borgan. Yangi nom ijod qilish yoki ob'ektni boshqa tildan o'zlashgan nom bilan atash mahsulldori birinchi usuldir.

Karmana toponimiyasida yangi nom hosil qilishning ikkita usuli kuzatiladi: morfologik usuli va sintaktik usullaridir.

Karmana toponimiyasi uchun morfologik usuli xarakterli emas . Ba'zi juz'iy toponimlar -chi qo'shimchasi Podachi , -li qo'shimchasi Tortuvli , Irg'oqli, -i qo'shimchasi Eroni, -gar qo'shimchasi Misgar yordamida hosil qilgan.

Karmana toponimiyasida toponim uchun asos bo'lgan lisoniy materiallar leksik – morfologik tarkibiga ko'ra uchga bo'linadi: 1) apellyativ asosli nomlar, 2) formantli nomlar, 3) indikatorli nomlar.

Apellyativ asosli nomlarning hosil bo'lishida eng faol modellar: ot + ot Boytepa, sifat + ot Yangiobod, Oqoltin, Yangihayot, son + ot Uchtut, Yuzqishloq, ot + fe'l Boyqochdi tuzilmalaridir.

Toponimlar tarkibida toponimga emas , unga asos bo'lgan lug'aviy negiz apellyativga tegishli bo'lgan ba'zi so'z yasovchi morfemalar uchraydi. Ular mohiyatan toponimni yasamasligi, atoqli ot tarkibida formal ravishda uchraydigan nofunkSIONal morfemalar bo'lgani tufayli topoformantlar deb yuritiladi.

Yasovchilik xususiyatiga egaligi bilan topoformantlar so'z yasash jarayonida qo'llanuvchi so'z yasovchi qo'shimchalarga o'xshasa hamki , vazifa va faollik darajasi jihatidan farqlanadi.

Umumiy xulosalar:

Makrotoponim va mikrotoponim tushunchasining mohiyatining tadqiq qilish va o'sha nuqtai nazardan Karmana tumani hududi toponimiyasini o'rganish quyidagi xulosalarga kelish uchun imkon beradi.

1. Mikrotoponimiya bo'yicha mavjud ishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, makrotoponimiyasi va mikrotoponimiya terminlari qo'pgina tadqiqotlarda tilga olinsada, bu ikki tip nomlar orasidagi mushtaraklik va farqlar uchun ularni o'zaro chegaraga imkon beruvchi o'rtaliqni belgilash bilan bog'liq. Bizning tahlillarimiz oykonimlar uchun bunday chegara (o'lchov) qishloq yoki shahar nomi fizikaviy jo'g'rofiy ob'ektlar nomi uchun tog' yoki vodiylar nomi, gidronimlar uchun esa ko'l yoki daryo nomi bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

Tadqiq qilayotgan hudud toponimiyasi ikki xil toponegizdan yasalgan, turdosh so'z negizlar va atoqli ot negizlar. Turdosh so'z toponegizlarda turdosh sifatlar, sonlar, fe'llar kiradi.

Atoqli ot toponegizlarga esa antroponimlar (ismlar, laqablar, familiyalar) toponimlar, etnonimlar kiradi.

Karmana toponimiyasi tizimida toponimlarning turli tiplari mavjud. Ammo miqdor jihatdan eng xarakterli nomlar: oykonimlar (qishloq, mahalla, ko'chalar nomi) oronimlar (tepaliklar)dir. Shu bilan birga hudud toponimiyasi uchun agionimlar (masjidlar nomi), nekronimlar (muqaddas qadamjolar) ham xarakterlidir.

Karmana hududi toponimiyasi uchun xarakterli bo'lgan xususiyatlaridan biri bitta nomning ikki va undan ortiq jo'g'rofiy ob'ektlarning atoqli oti bo'lib kelishidir. Kuzatishlar bu hududda ba'zi toponimlarning to'rtta, hatto beshta ob'ektga nom bo'lib kela olishining mahsulidir. Dehgaroniy machit, qishloq, mahalla, muqaddas qadamjoy kabi.

Tadqiq qilingan hudud toponimlarining aksariyati sintaktik usulda hosil qilingan. Nomlarning morfologik usulda yasalishi unchalik xarakterli emas. Karmana hududi toponimiyasining izohli, etimologik lug'atlarni tuzish, bu hudud

toponimiyasini yondosh hududlar toponimiyasi bilan qiyosiy o'rganish galdagi vazifalardan biridir.

2. Karmana toponimiyasi fondi ikki usulda rivojlanib va boyib borgan. Yangi nom ijod qilish yoki ob'ektni boshqa tildan o'zlashgan nom bilan atash mahsuldori birinchi usuldir.

3. Karmana toponimiyasida yangi nom hosil qilishning ikkita usuli kuzatiladi: morfologik usuli va sintaktik usullaridir.

4. Karmana toponimiyasi uchun morfologik usuli xarakterli emas. Ba'zi juz'iy toponimlar -chi qo'shimchasi Podachi, -li qo'shimchasi Tortuvli, Irg'oqli, -i qo'shimchasi Eroni, -gar qo'shimchasi Misgar yordamida hosil qilgan.

5. Karmana toponimiyasida toponim uchun asos bo'lgan lisoniy materiallar leksik-morfologik tarkibiga ko'ra uchga bo'linadi: 1) apellyativ asosli nomlar, 2) formantli nomlar, 3) indikatorli nomlar.

Apellyativ asosli nomlarning hosil bo'lishida eng faol modellar: ot + ot Boytepa, sifat + ot Yangiobod, Oqoltin, Yangihayot, son + ot Uchtut, Yuzqishloq, ot + fe'l. Boyqochdi tuzilmalaridir.

6. Toponimlar tarkibida toponimga emas, unga asos bo'lgan lug'aviy negiz apellyativga tegishli bo'lgan ba'zi so'z yasovchi morfemalar uchraydi. Ular mohiyatan toponimni yasamasligi, atoqli ot tarkibida formal ravishda uchraydigan nofunktsional morfemalar bo'lgani tufayli topoformantlar deb yuritiladi.

7. O'rganilgan hudud toponimiyasida toponimik aniqlagichlarning deyarli barchasi uchraydi. Ammo ular orasida eng xarakterlilari toponimik aniqlagichlar (qishloq, ovul, guzar); gidronimik aniqlagichlar oz uchraydi.

8. Yasovchilik xususiyatiga egaligi bilan topoformantlar so'z yasash jarayonida qo'llanuvchi so'z yasovchi qo'shimchalarga o'xshasa hamki, vazifa va faollik darajasi jihatidan farqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlool va taraqqiyot yo'li. - T.: O'zbekiston, 1992.
2. Karimov I. A. O'zbek XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari, taraqqiyot kafolatlari. Toshkent, 1997 yil.
3. Abdullayev F.A. Kishi otlarini qisqartish usullari // O'zbek tili va adabiyoti masalalari. - 1960. – 3-son.
4. Abdullayev F.A. Etimologiya bo'yicha kuzatishlar // O'zbek xalq ijodi. – T.: Fan, 1967.
5. Avlonov V. Shofirkon tumani mikrotoponimiyasining lingvistik tahlili: Filol.fanlari nomzodi dis. ... avtoref. – T., 2005. – B. 14
6. Begmatov E. Nomlar va odamlar. – Toshkent. 1966 yil.
7. Begmatov E. Joy nomlari - ma'naviyat ko'zgusi . Toshkent. 1998 yil
8. Bafojev B. Ko'l so'zining ma'nolari va tarixi // O'zbek tili va adabiyoti. – 1992. – 2-son.
9. Begimov O. Janubiy O'zbekiston toponimlarining o'zlashgan qatlami: Filol. fanlari nomzodi ... dis. avtoref. – T., 1999. – B. 13-14.
10. Bo'riyev O. Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo. – T.: O'zbekiston, 1997.
11. Do'simov Z. Toponimik indikatorlar // O'zbek tili va adabiyoti. – 1972. – 5-son. – B. 71-74.
12. Do'simov Z., Egamov X. Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati. - T.: O'qituvchi, 1977.
13. Do'simov Z. Xorazm toponimlari. - T.: Fan, 1985.
14. Do'simov Z. Xorazm toponimlarining tarixiy-lisoniy tahlili: Filol. fanlari d-ri ... dis. avtoref. – T., 1986.
15. Jabborov X. O'zbek tilida suv leksemasining lug'aviy ma'noviy xususiyatlari. – Qarshi: Nasaf, 2005. – B.14-40, 4-47, 48-50.
16. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T., 1960.

17. Muhammadjonov A. “Karmana” va “Karmina” toponimining etimologiyasi haqida .“O’zbekiston tarixi” jurnali . 1999 yil.
18. Nafasov T. O’zbekiston toponimlarining izohli lug’ati. - Toshkent.1988.
19. Oripov O’. Nurota tumani makro- va mikrotoponimiyasining lisoniy tahlili: Filol. fanlari nomzodi dis. ... avtoref. – T., 2003. – B. 13.
20. Podolskaya N.V. Slovar russkoy onomasticheskoy terminologii. - M., 1978.
21. Inoyatov S., Hayitova O. Karmana tarix ko’zgusida . “Sharq” Toshkent 2005 yil.
22. Inoyatov S. Sohibqiron va temuriylar nazari tushgan diyor. - “Sharq” nashriyoti. Toshkent. 2002 yil.
23. O’zbek tili grammatikasi. T.I. Morfologiya. - T.: Fan, 1975.
24. O’zbekiston milliy ensklopediyasi . IV tom .
25. Qorayev S., G’ulomov P. Rahimbekov R. Geografiyadan izohli lug’at. – T.: O’qituvchi, 1979.
26. Qorayev S. O’zbekiston viloyatlari toponimlari . Toshkent. 2005 yil.
27. Hasanov H. Geografik terminlar lug’ati. – T.: Fan, 1964.
28. Hasanov H. O’rta Osiyo joy nomlari tarixidan. – T.: Fan, 19
29. Hayitova O. Karmanalik buyuk siymolar va muqaddas qadamjolar .
30. Hotamov A. , Xalilov Sh. Yillar sadosi. - Toshkent , “ Adolat ” nashriyoti . 1999 yil.
31. Enazarov T. Turkiy sodda toponimlarning etimologik tadqiqi. II kitob. Toshkent “ Universitet ” nashriyoti .2002 yil.

M U N D A R I J A:

Ishning umumiy tavsifi.....	3 – 5
I bob. Karmana mikrotoponimiyasining lug'aviy asoslari.....	6 – 25
1.1. Toponim va indikatorlar.....	13 – 21
1.2. Tarkibida atoqli ot toponegizlari yotuvchi toponimlar	21 – 25
II bob. Karmana toponimlarining tuzilishi va grammatik xususiyatlari.....	22 – 38
2.1. Toponimlarning morfologik usulda yasalishi.....	27 – 30
2.2. Toponimlarning sintaktik usulda yasalishi.....	30 – 36
2.3. Toponim yasalishining onomastik konversiya usuli.....	36 – 38
Umumiy xulosalar.....	39 – 40
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	41 – 42